



86	Ingliz va o'zbek tillaridagi antisemik munosabatda bo'lgan tibbiy frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari Haydarova N. A.	424
87	Таржима жараёнида дискурс таҳлиlining роли Қосимова Н.Ф.	428
88	Ўқув машғулоти жараёнида мақол, матал ва идеоматик бирикмаларни ўзбек ва немис тилларида қиёслаб ўрганиш Бабаев М.Т.	431
89	Tarjimada lingvokulturalarning berilishi va ularning struktural komponentlari (Nemis va o'zbek tillari misolida) Irgasheva F.B.	435
90	Xorijiy tillar ta'limida talabalarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati Olimova D. Z.	439
91	Мақтаб таълимида паст ўзлаштириш сабаблари ва тўлиқ ўзлаштириш турлари Джаолов Ф. Ф.	443

13.00.00

ПЕДАГОГИКА ФАҲЛАРИ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

92	Бўлажак офицерларни касбий фаолиятта ахлокий-руҳий тайёрлашда буюк аждодларимиз ҳарбий санъатининг аҳамияти Бурханов Т.М.	448
93	Абу Наср Ал-Фаробий, Абу Али Ибн-Сино, Сафиуддин Ал-Урмавий ва Абдурахмон Жомийларнинг илмий – назарий қарашлари. Маҳамматов А, Абдурахимов А, Холбеков М.	454
94	Moliya-iqtisod yo'nalishi talabalarining gapirish va o'qish ko'nikmalari takomillashtirishda ta'lim innovatsiyalarining roli Yo'ldoshova U.B.	461
95	Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarining muhandislikga yo'naltirilgan kasbiy-muhandislik kompetentligini shallantirish Хамитов Ф.М.	466
96	Ta'lim jarayonida interaktiv usuldan foydalanish va phet elektron resursi haqida Karimova S.T.	471
97	Fizika o'qitishda venn diagrammasidan foydalanish va uning samaradorligini baholash. Misladinov B.Z, Muminov A.L.	476
98	The role of ict in teaching english Nurdinova F. K.	481



99	The importance of motivation in second language learning Xasanova U.O.	487
100	The importance of modern innovative technologies and their use in improving the quality of independent education" Raimjanova N. I.	491
101	Advantages of teaching in a virtual information environment and the role of the teacher Mamadjanova S.V, Djurayev I.I.	495
102	Ratsional balanslashtirilgan ovqatlanishning biokimyoviy asoslari. Mirzayev S., Turg'unov A., Xamidov Sh.	500
103	Boshlang'ich sinf matematika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish Abdulxayev A.	504
104	Миллий ва замонавий тенденциялар асосида амалий санъатни ривожланишида риштон кулолчилик мактабининг ўрни Абдуллаев А.Х.	509



Tadqiqot natijalari asliyat tili va tarjima tili orasidagi lisoniy qiymatni topib, tarjimada qo'llash eng samarali usullardan biri ekanligini ko'rsatdi. Asimmetriya va qiymat qonunlarini bilish tarjima jarayonini osonlashtiradi va uning sifatini asliyatga yaqinlashtiradi. Bu ayni paytda asliyat tili tizimining tarjima tili tizimiga o'tkazish ehtimoli bo'lgan «bosimi»ga uzil-kesil barham beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы). – М., 1997.
2. Гончар Н.Г. Асимметрия в переводе художественного текста: этнолингвокультурный аспект: Дис. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2009. – 254 с.
3. Слыский, Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование. Вестник Воронежского университета. – Воронеж, 2009. С. 29-35.
4. Irgasheva Feruza Bakhtiyorovna. (2021). INTEGRATION OF LANGUAGE AND CULTURE INTO THE TRANSLATION PROCESS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(1), 32-34.
5. Kasimova, N.F. (2017). Communicative functions of the interrogative sentences in English. Priority Directions of Science Development, 3, 59-62.
6. Касимова Н.Ф. Лисоний белги асимметриyasi ва унинг сўрок гап таржимасида воқеланиши. Ф.ф.ф.д. дисс... . – Тошкент, 2018. 149 б.

XORIJIY TILLAR TA'LIMIDA TALABALARDA MUSTAQIL O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Olimova Dilfuza Zokirovna

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti

email: d.z.olimova@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqplada chet tillarni o'qitishda talabalar avtonomiyasini rivojlantirish muammosi yoritiladi, chet tillarni o'rganish jarayonida talabalar o'zlashtiradigan metakognitiv strategiyalar ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar: avtonomiya, metakognitiv strategiyalar, tanqidiy fikrlash ko'p o'lchamli qobiliyat, o'z-o'zini o'qitish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholash.

ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ АВТОНОМНОГО ОБУЧЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Олимова Дилфуза Закировна

Бухарский Государственный Университет

Преподаватель кафедры переводоведения и лингводидактики

email: d.z.olimova@buxdu.uz

Аннотация: В статье обсуждается проблема развития автономии студентов при обучении иностранным языкам, рассматриваются метакогнитивные стратегии, которым обучаются студенты в процессе изучения иностранных языков.



Ключевые слова: автономия, метакгнитивные стратегии, многомерная способность, самообучение, самостоятельное руководство, самооценивание.

THE IMPORTANCE OF SHAPING AUTONOMOUS LEARNING SKILLS IN STUDENTS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Olimova Dilfuza Zokirovna

Bukhara State University

A teacher at the department of Translation Studies and Linguodidactics

email: d.z.olimova@buxdu.uz

Abstract: In the article, one of the issues of general concern in SLA community learner autonomy is discussed.

Key words: autonomy, metacognitive strategies, critical thinking, multidimensional capacity, self-instruction, self-direction, self-assessment.

Xorijiy tillarni o'qitishda bugungi kunda shaxs-faoliyat, kommunikativ-kognitiv va ijtimoiy – madaniy yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Ushbu yondashuvlar doirasida tilga bir tomondan aloqa vositasi, boshqa tomondan bilish vositasi sifatida qaraladi. Ta'lim o'quvchining shaxsini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uni ta'lim faoliyat subyekti sifatida talabani butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish va o'zini-o'zi takomillashtirish jarayoniga tayyorlaydi. Ayni paytda chet tillarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari sharoitida o'quvchilarda o'qishda avtonomiyani rivojlantirish ham mahalliy, ham xorijiy lingvodidaktika bo'yicha o'qitishning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Psixologiya va pedagogikada avtonomiyaga shaxsning individual pozitsiyasi sifatida qaraladi, bu motivlar, maqsadlar, xulq-atvor uslubi va boshqalarni tanlashda mustaqillik va tanlov erkinligi bilan tavsiflanadi. Avtonomiyaga bo'lgan ehtiyoj shaxsni shakllantirish mexanizmiga kiritilgan - individualizatsiya, bu shaxsni mustaqil, fikrlaydigan va mas'uliyatli ijtimoiy mavjudot sifatida shakllantirishni ta'minlaydi.

O'rganuvchilar avtonomiyasi haqidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida eng ko'p iqtibos keltiriladigan izoh bu Henri Holeyning bergan sharhidir, u avtonomiyani "o'z ta'limi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati" sifatida ta'riflaydi. Holey bergan ta'rifga ko'ra mustaqil o'rganuvchilar o'zlarining ta'lim olishlariga aloqador barcha qarorlar: maqsadlarni belgilash, mazmun, manba va metodlarni tanlash va o'rganilganlarni nazorat qilib borish va baholash xususiyatiga egalar.

Littl (Little, 1997), Holeyning fikrini davom ettirar ekan unga psixologik omilni ham qo'shadi va "avtonomiya faqatgina o'rganish jarayonini tashkillashtirishning masalasi emasligini aytib o'tadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, avtonomiya mustaqillik, o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qila olish, qarorlar qabul qilish va mustaqil ish olib borish qobiliyatidir, ammo bu o'z nabvatida o'rganuvchi shuningdek ta'lim olishi jarayoni va mazmuniga doir o'ziga xos psixologik aloqadorlik hosil qilishini ham nazarda tutadi.

Yuqoridagi izohni ma'qullar ekan, Benson (Dam, 2011) Littlning izohi ancha kengroq va haqqoniy ekanligini aytib o'tadi, uning fikricha avtonomiya o'rganish jarayonini o'zi samarali boshqarishda ishtirok etadigan kognitiv jarayonlar ustidan nazoratdir.

Yana bir olim, Dikenson avtonomiya o'z-o'zini o'qitish va o'z-o'zini boshqarish bilan bir narsa emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'z-o'zini o'qitish yoki o'z-o'ziga yo'l-yo'riq berish -



o'qituvchining to'g'ridan-to'g'ri nazoratisiz amalga oshadigan jarayondir, o'z-o'zini boshqarish esa o'rganuvchilar ta'lim jarayoniga oid barcha qarorlarga mas'uldirlar, ammo bu qarorlarning amalda tadbqiq etilishiga har doim ham javobgar emaslar.

Zimmerman ham o'z-o'zini boshqarishni talabning ta'lim jarayonidagi metakognitiv, motivatsion, va xulq-atvor jihatdan faol ishtirokchiligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Uning fikrini qo'llab-quvvatlar ekan, Ellis (2008) o'z-o'zini boshqarish insonning o'z-o'rganish jarayonini nazorat qilib borish va qo'llayotgan strategiyalariga o'zgarishlar kiritishdan iborat ekanligini aytib o'tadi. Bu mashq qila olish qobiliyatining kishining motivatsion holati ustidan nazorat qila olishini ham taqozo etadi.

Kotteral, Vayt, Littlvud, Littl va Shmenk kabi olimlarning ushbu masala bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, o'rganuvchilar avtonomiyasi talabalarga: tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va mustaqil faoliyat olib borish uchun qobiliyatni shakllantirish; o'rganish jarayoni va to'g'ri strategiyalar qo'llash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish; muvaffaqiyatsizliklar va muammolarga qarshi tura olish uchun psixologik barqarorlikka erishish; o'z o'rganish potentsiallarini kashf etish va o'qituvchiga t'oliq bog'liqlikdan voz kechishga yordam beradi.

Kumaradivelu avtonomiya nima emasligini sharhlaydi-avtonomiyaning mustaqillikdan farqi bor, bunda o'rganuvchilar o'qituvchilari, tengdoshlari va ta'lim tizimi bilan hamkorlikda ishlashadi. Avtonomiya barqaroq holat ham emas, unga erishgan talabalar ayrim bir vaziyatda mustaqil qaysidadir esa mustaqil bo'lmasliklari ham mumkin.

Yuqoridagi barcha izohlarning eng yaxshi xulosasi sifatida Bensonning fikrini keltirish mumkin, u avtonomiyani "turli individlar uchun turli shakllarda namoyon bo'ladigan, hattoki bir individning o'zi uchun ham turli kontekst yoki turli vaqtlarda amalga oshadigan ko'p o'lchamli qobiliyat" sifatida tasniflaydi.

Shuningdek, Littlvud o'z-o'zini boshqarishning *proaktiv* va *reaktiv* avtonomiyasini farqlaydi, birinchi variantda o'rganuvchilar ta'limlari uchun mas'ul, o'z maqsadlarini belgilaydilar, metodlarni tanlaydilar va o'zrganlarini baholaydilar; ikkinchi holatda esa o'z maqsadlariga erishish uchun manbalarni mustaqil ravishda tanlab tashkillashtiradilar.

Avtonomiyani har bir o'rganuvchida ma'lum miqdorda rivojlantirish mumkinligi g'oyasini ilgari surib, uni 5 bosqichga ajratgan olim Nunan har bir bosqichni quyidagicha talqin qiladi:

1-bosqich – anglash, bunda o'rganuvchilarga pedagogik maqsadlar va dastur mazmuni tanishtiriladi va o'rganish strategiyalarini tanish va o'quv dasturini tarkibini ko'rib chiqishga undaladi.

2-bosqich – jalb qilinish, o'rganuvchilar materiallarni o'zgartirish, moslashtirish jarayoniga jalb qilinadi.

3-bosqich-interventsiya (aralashish), o'rganuvchilar maqsadlar, dastur mazmuni va vazifa va mashqlarni moslashtirish, o'zgartirishga jalb qilinadilar.

4-bosqich – yaratish, o'rganuvchilar o'z maqsadlari, dastur mazmuni, mash va vazifalarni yaratadilar.

5-bosqich – ustunlik, o'rganuvchilar auditoriyadagi dars mazmuni va auditoriyadan tashqaridagi dunyo bilimlari o'rtasida bog'lik yaratadilar. Ushbu bosqichda talabalar chin ma'noda avtonom o'rganuvchilarga aylanadilar va o'rgananganlarini kundalik hayotga tadbqiq qiladilar.



Mustaqil o'rganuvchilar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladilar: o'zlarining o'rganish uslublari va strategiyalarini anglaydilar (vizual, audio, kinestetik); bajarayotgan vazifalariga faol yondashadilar; tavakkal qilishga moyil bo'ladilar; topqirlik xususiyatlari yuqori; shakl va mazmunga bir xil e'tibor qaratadilar; tez-tez bilimlarini takrorlab turadilar; o'rganayotgan tillariga nisbatan to'larant yondashuvga egalilar.

Avtonomiyani rivojlantirish usullari *manbalarga asoslangan* (materiallarni mustaqil sholata olish), *texnologiyaga asoslangan* (ta'lim texnologiyalarini mustaqil qo'llay olish), *dars yoki auditoriyaga asoslangan* (sinfda o'rganishni rjelashtirish va baholashda talab nazorati), *o'quv dasturiga asoslangan* (dasturni talaba nazorat qila olishi), *o'rganuvchiga asoslangan* (avtonom o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish) shakllarda namoyon bo'ladi. Autentik matnlarning ishlatilishi,o'z-o'ziga yo'l-yo'riq bera olish ,shuningdek masofaviy ta'lim manbalarga asoslangan usulda muhim ahamiyatga ega bo'lsa,texnologiyaga asoslangan usulda internet,dasturlar,kompyuter yordamidagi kommunikatsiya asosiy omillar hisoblanadi. Auditoriya darsiga asoslangan avtonomiyani rivojlantirish usulida talabalardan o'z maqsadlarini belgilab olishlari ,darsda bajariladigan vazifa va mashqlarni rejalashtirishlari so'raladi.O'rganuvchi yoki talabaga asoslangan usulda til o'rganish strategiyalari va samarali til o'rganuvchi bo'lishning tamoyillari ustivorlik qiladi.O'quv dasturiga asoslangan shaklda dasturni qayta ko'rib chiqish,loyiha isshi,muammoli vaziyat turidagi

Talabalarda til o'rganish avtonomiyasini shakllantirishda o'qituvchining roli va o'qituvchidagi avtonomiya ham o'ziga xos.Bunda o'qituvchi ko'proq maslahatchi,yengillashtiruvchi,ba'zan manba vazifalarini bajaradi. O'rganishdagi avtonomiyani rivojlantiruvchi kognitiv va metakognitiv strategiyalar farqlanadi.

Metakognitiv strategiyalar talabani o'z o'qish jarayoni to'g'risida fikr yuritib,undagi rejalashtirish,kuzatib borish ,muammoni yechish ,baholash ko'nikmalariga urg'u bersa,*kognitiv strategiyalar* talabaning tilga aloqador qandaydir bir vazifani bajarishi: yangi so'zlar ro'yxatini tuzishi,grammatik mashqlarni bjarishi,qo'shiq tinglashi kabilarni o'z ichiga oladi.O'quv topshirig'ini bajarishda harakatlarni rejalashtirish,inter oraliq maqsadlarni belgilash,aks ettirish,kuchli va kuchsiz tomonlarini yetarlicha baholay olish,o'zini -o'zi qadrlash ,kerakli o'quv strategiyasini tanlashga imkon beradigan moslashuvchanlik ham metakognitiv strategiyalar asosida yotadi.

Aynan shu strategiyalarni ishlab chiqishda talabani avtonom ta'limga tayyorlaydigan chet tili o'qituvchisining asosiy vazifasi yotadi.Shunigdek talabalar bilim olishda individual strategiyalar to'plamidan faol foydalanishlari kerak,masalan umumlashtirish va tartibga solish strategiyalari kabi.Shunday qilib chet tilini o'zlashtirish talabalardan izchil kognitiv va metakognitiv strategiyalarni qo'llashni talab qiladi.Til o'ragish jarayonida ular izlanuvchan va eksperimental bo'lib,o'z yo'lidan yurib ko'p yutuqlarga erishadilar. Shu bilan birga ,o'qituvchining fadiyati ham talaba muhitining muhim qismi hisoblanib,talaba ixtiyoridagi material va uni o'zlashtirish imkoniyatlarini tartibga solib maslahatchi vazifasini bajaradi.

Avtonomiyani rivojlantirishda *dialog jurnallari*,turli o'rganish jurnallarining yuritilishi ayniqsa samarali bo'lib,bunda o'qituvchi va talaba o'rtasida kanal yaratiladi,javoblar qayd etib boriladi.Texnoliya rivojlangan bugungi kunda buni nafaqat yozma balki disklarda,onlayn tarzda,barcha o'qiy oladigan yoki aksincha faqat o'sha talabani o'zi o'qiy oladigan shaklda amalga oshirish mumkin. Xorijiy tillarni o'qitishda keng tarqalgan o'qish loglari yuritilishi ham talabani qiziqtiradigan faoliyat turi bo'lib ,talaba o'qiganlarini xulosalay olish bilan birga



baholab ham biladi. Bloglar yuritish, turli dasturlar, Web2.0 instrumentlari, Webkvestlar ancha zamonaviy faoliyat turlari bo'lsada, texnologiya ildamlab ketgan bugungi kunda yosh avlodni hayotga tarbiyalab boradi. Webkvest (Webquest) talabalarga biroz qiyinroq mavzu yoki muammoni tanishtiradi va bunda talabalar internet va undagi ishonchli manbalardan foydalangan holda yechim izlab topadilar. Bu ayniqsa davriy matbuot, turli ijtimoiy va atrof-muhit mavzularida bajarishga juda qulay va samarali.

Reflektiv (aks ettiruvchi) darslar yordamida talabalarni o'z motivatsiyalari, qarash va g'oylardagi o'zgarishlari, turli vazifa va mashqlarni bajarishda qanday ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerakligi, ularning o'zrganishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar, bilimlaridagi bo'shliqlar haqida fikr yuritishga undaydi. Kundalik yuritish, baholash varaqalari ham ulardagi rejalashtirish, kuzatish va o'z o'rganganlarini baholay olishga yordam beradi, bilimlarni egallash jarayoniga aloqador salbiy ishonch va qarashlarning ijobiyga o'zgarishishiga erishilishda ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, avtonomiya xorijiy tillar ta'limida talabalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, u talabalar va o'qituvchilarning muloqot uslubi va xulq-atvorining o'zgarishiga olib keladi. Sinf xonasida hamkorlik, qo'llab-quvvatlash va o'zaro yordam muhiti yaratiladi. O'qituvchi o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish uchun o'quv jarayonini tashkil qilishning har xil turlari va shakllaridan foydalanadi. Chet tilidan foydalangan holda talabalarining bilim va ma'lumot olish bo'yicha mustaqil ishi axborot madaniyatini oshirishga turtki bo'ladi, keyinchalik hayoti davomida ham muvaffaqiyatli mustaqil bilim faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allwright R. What do we want teaching materials for? *ELT Journal*, 36/1, 1981.
2. Cotterall, S. (1995) Developing learner autonomy. *ELT Journal*, 49(3), 219-222.
3. Dam, L. (2011). Developing learner autonomy with school kids: Principles, practices, results.
4. Dickinson, L. (1995) Autonomy and motivation. *System*, 23(2), 165-174.
5. Dworkin G. Theory and practice of Autonomy - Cambridge University Press, 1988.
6. Kumaravadivelu, B. (2003). Beyond methods: Macrostrategies for language teaching. New Haven, NH: Yale University Press.

МАКТАБ ТАЪЛИМИДА ПАСТ ЎЗЛАШТИРИШ САБАБЛАРИ ВА ТЎЛИҚ ЎЗЛАШТИРИШ ТУРЛАРИ

Джалолов Фурқат Фаттоҳович

Бухоро давлат университети

Таржимашунослик ва лингводидактика кафедраси ўқитувчиси

e-mail: furik7676@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақлада мактабда ўқувчилар таълим мазмунини тўлиқ ўзлаштирмасликларининг асосий сабаблари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: маълумот мазмуни, давлат таълим стандарт (ДТС), таълим самарадорлиги, гетероген ва гомоген ўқувчилар жамоаси, диагностик таҳлил.

ПРИЧИНЫ НИЗКОГО ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ВИДЫ ПОЛНОГО ОБУЧЕНИЯ

443